

YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR VA O‘ZINI-O‘ZI BAND QILGAN SHAXSLAR SEGMENTI UCHUN SHAFFOF RAQAMLI TO‘LOV TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH

Isamuxamedov Anvar Sadiqovich

“Paynet” AJ Bosh direktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT) va o‘zini-o‘zi band qilgan shaxslar faoliyatida raqamli to‘lov texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi yoritilgan. Raqamli to‘lovlarning tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, aylanma va savdo hajmini oshirish, moliyaviy intizom va hisobotdorlikni kuchaytirish, shuningdek moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi ta’siri bo‘yicha tahliliy xulosalar berildi. Empirik asos sifatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to‘lov infratuzilmasi bo‘yicha statistik ma’lumotlari, Jahon banki va boshqa xalqaro manbalardagi sharhlar, shuningdek davlat organlari tomonidan e’lon qilingan ochiq ma’lumotlar va axborotlardan foydalanilgan. Maqolada raqamli to‘lovlarning YTT va o‘zi band segmentida barqaror daromadlarni qo‘llab-quvvatlash, yashirin iqtisodiyoti ulushini qisqartirish hamda davlat byudjeti tushumlarini barqarorlashtirishdagi roli asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli to‘lovlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT), o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, QR-to‘lovlar, POS-terminallar, naqdsiz hisob-kitoblar, tranzaksiya xarajatlari, moliyaviy inklyuziya, raqamli iz, yashirin iqtisodiyot.

Abstract

This article examines the economic efficiency of implementing digital payment technologies in the activities of individual entrepreneurs (IEs) and self-employed persons. Analytical conclusions are presented on the impact of digital payments on reducing transaction costs, increasing turnover and sales volumes, strengthening financial discipline and reporting, as well as expanding financial inclusion. The empirical basis of the study includes statistical data on payment infrastructure published by the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, the World Bank’s Global Findex database and financial inclusion reports, as well as open data and information released by government authorities. The article substantiates the role of digital payments in supporting sustainable income generation in the segment of individual entrepreneurs and the self-employed, reducing the share of the shadow economy, and stabilizing state budget revenues.

Keywords: digital payments, individual entrepreneurs (IEs), self-employed persons, QR payments, POS terminals, cashless transactions, transaction costs, financial inclusion, digital trace, shadow economy.

Аннотация

В данной статье рассматривается экономическая эффективность внедрения цифровых платёжных технологий в деятельности индивидуальных предпринимателей (ИП) и самозанятых лиц. Дается аналитическая оценка влияния цифровых платежей на сокращение транзакционных издержек, увеличение оборота и объёмов торговли, усиление финансовой дисциплины и

отчётности, а также расширение финансовой инклюзии. В качестве эмпирической базы использованы статистические данные по платёжной инфраструктуре Центрального банка Республики Узбекистан, обзоры Всемирного банка и других международных источников, а также открытые данные и отчёты государственных органов. В статье обоснована роль цифровых платежей в поддержании устойчивых доходов в сегменте ИП и самозанятых, снижении доли теневой экономики и стабилизации поступлений в государственный бюджет.

Ключевые слова: цифровые платежи, индивидуальные предприниматели (ИП), самозанятые лица, QR-платежи, POS-терминалы, безналичные расчёты, транзакционные издержки, финансовая инклюзия, цифровой след, теневая экономика.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning raqamlashtirilishi, naqdsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish, elektron tijoratni rivojlantirish hamda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabr PF-246-sonli chiqarilgan “Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni¹ hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgust PQ-247-sonli “Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori² orqali raqamli to‘lov infratuzilmasini kengaytirish, elektron to‘lovlar orqali shaffoflikni oshirish va fiskal intizomni kuchaytirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilandi. O‘zbekistonda raqamli to‘lov texnologiyalarining kengayishi naqd pulga bog‘liqlikni kamaytirish, xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish va iqtisodiy munosabatlarni shaffoflashtirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, YTT va o‘zi band segmenti iqtisodiyotda keng qatlamni tashkil etgani bois, ushbu segmentda raqamli to‘lovlar ulushining oshishi umumiy iqtisodiy samaradorlik va soliq bazasining kengayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish zamonaviy iqtisodiyot transformatsiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zi band shaxslar segmenti uchun raqamli to‘lov texnologiyalarini joriy etish alohida ahamiyatga ega, chunki ushbu sektor naqd pul hisob-kitoblarining yuqori ulushi, bank moliyalashtirishiga cheklangan kirish va yuqori operatsion xarajatlar bilan tavsiflanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida naqd pul muomalasining yuqori ulushi soliq bazasining qisqarishiga, norasmiy aylanmalarning kengayishiga hamda davlat moliyaviy resurslarining yo‘qotilishiga olib kelmoqda. Shu sababli zamonaviy to‘lov texnologiyalarini joriy etish, elektron tijorat platformalarini rivojlantirish va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabr PF-246-sonli chiqarilgan “Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7897630>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgust PQ-247-sonli “Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-7681520>

innovatsion to'lov vositalari orqali iqtisodiy operatsiyalarni shaffoflashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylandi.

Bunda yangi avlod raqamli to'lov texnologiyalarining joriy etilishi naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish, savdo va xizmat ko'rsatish sohasida elektron tranzaksiyalar ulushini oshirish hamda yashirin iqtisodiyot darajasini sezilarli darajada kamaytirishga imkon berishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda raqamli to'lov texnologiyalari zamonaviy iqtisodiyotning muhim institutsional elementi sifatida talqin qilinadi hamda ularning iqtisodiy samaradorligi, moliyaviy inklyuziya darajasiga ta'siri va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi roli keng o'rganilgan. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) va OECD tomonidan chop etilgan tadqiqotlarda raqamli to'lovlar iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiruvchi va moliyaviy tizim shaffofligini oshiruvchi omil sifatida baholanadi.

Jahon banking Global Findex Database hisobotlarida raqamli to'lov vositalaridan foydalanish darajasi oshgan mamlakatlarda moliyaviy inklyuziya sezilarli darajada yaxshilangani qayd etilgan. Xususan, mobil to'lovlar va QR-to'lovlar kichik biznes hamda o'zi band shaxslar uchun bank xizmatlariga kirishni soddalashtirib, rasmiy moliyaviy tizimga integratsiyani tezlashtirishi ta'kidlangan.

OECD tadqiqotlarida raqamli to'lov infratuzilmasining rivojlanishi kichik va o'rta biznes subyektlarida aylanma mablag'lar aylanish tezligini oshirishi, hisob-kitoblardagi kechikishlarni kamaytirishi hamda fiskal intizomni mustahkamlashi qayd etiladi. Ayniqsa, POS-terminallar va elektron hisob-fakturalardan foydalanish soliq ma'lumotlarining aniqligini oshirib, yashirin iqtisodiy faoliyatni cheklashga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda naqdsiz hisob-kitoblar ulushining oshishi davlat byudjeti tushumlarining barqarorlashuvi va soliq bazasining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. IMF ekspertlari raqamli to'lovlar orqali iqtisodiy operatsiyalarni rasmiylashtirish yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishning eng samarali mexanizmlaridan biri ekanini ta'kidlaydi.

Ilmiy maqolalarda (Suri va Jack; Demirguc-Kunt va boshq.) raqamli to'lov platformalarining, xususan mobil to'lovlarning, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zi band shaxslar daromadlari barqarorligini oshirishga ijobiy ta'siri empirik jihatdan isbotlangan. Tadqiqotlarda raqamli to'lovlardan foydalanuvchi kichik biznes subyektlarining savdo hajmi va mijozlar qamrovi an'anaviy naqd hisob-kitoblarga tayanadigan subyektlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli to'lovlar bo'yicha ilmiy va amaliy tahlillar Markaziy bank hamda davlat organlari hisobotlarida aks etgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking rasmiy statistik ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda POS-terminallar soni, QR-to'lovlar hajmi va elektron tranzaksiyalar ulushi barqaror o'sish tendensiyasiga ega.

Shuningdek, “data.egov.uz” platformasida e’lon qilingan ochiq ma’lumotlar raqamli to’lovlar rivoji bilan yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining oshishi, o’zi band shaxslarning rasmiy ro’yxatdan o’tishi va soliq tushumlarining kengayishi o’rtasida bevosita bog’liqlik mavjudligini ko’rsatadi.

Adabiyotlarda ta’kidlanishicha, raqamli to’lov texnologiyalarining samaradorligi nafaqat texnologik infratuzilma, balki normativ-huquqiy muhit, fiskal rag’batlar va moliyaviy savodxonlik darajasi bilan chambarchas bog’liq. Shu jihatdan, O’zbekiston qonunchilik hujjatlari raqamli to’lovlarni ommalashtirish orqali YTT va o’zini o’zi band qilgan shaxslarni iqtisodiy jihatdan qo’llab-quvvatlashga qaratilgan muhim institutsional asos sifatida baholanadi.

Umuman olganda, ilmiy manbalar va xalqaro tajriba raqamli to’lov texnologiyalari yakka tartibdagi tadbirkorlar va o’zini o’zi band qilgan shaxslar faoliyatida tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, iqtisodiy faollikni oshirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda davlat moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o’ynashini ko’rsatadi. Bu holat mazkur maqolada tanlangan tadqiqot yo’nalishining dolzarbligini hamda ilmiy-amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tahliliy va empirik yondashuvlar uyg’unlashtirildi. Raqamli to’lov texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi YTT va o’zini o’zi band qilgan shaxslar faoliyatiga ta’siri nuqtai nazaridan baholandi. Asosiy manba sifatida O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat soliq qo’mitasi va data.egov.uz portallarida e’lon qilingan ochiq statistik ma’lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, Jahon banki, IMF, OECD va UNDP tomonidan tayyorlangan xalqaro hisobotlar solishtirma tahlil uchun asos bo’ldi. Tranzaksiya xarajatlari, tushumlar, to’lov hajmi va rasmiy faoliyat ulushi kabi ko’rsatkichlar asosida raqamli to’lovlarning samaradorlik darajasi baholandi. Tadqiqotda mintaqaviy tafovutlar, texnologik kirish imkoniyatlari va fiskal mexanizmlarning ta’siri ham ko’rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O’zbekiston Respublikasida so’nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari (bank xizmatlari, davlat xizmatlari va savdo operatsiyalarining masofaviy xizmatlari) fonida raqamli to’lovlar infratuzilmasi jadal kengaymoqda. Davlat siyosatida naqdsiz hisob-kitoblarni rag’batlantirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Raqamli to’lov infratuzilmasining kengayishi natijasida YTT va o’zini o’zi band qilgan shaxslar segmenti uchun “kirish bareri” pasaymoqda. Xususan, YTT va o’zini o’zi band qilgan shaxslar uchun raqamli to’lovlarning amaliy samaradorligi, avvalo, to’lovni qabul qilish (POS va QR-to’lovlar), hisob-kitobni rasmiylashtirish va aylanmani tezlashtirish imkoniyatlari bilan bog’liq. O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to’lov tizimi ko’rsatkichlariga oid ma’lumotlariga ko’ra, 2024-yil 1-noyabr holatida mamlakatda muomaladagi bank kartalari soni 54943130 donani, o’rnatilgan POS-terminallar soni esa 425553 donani tashkil etgan.


2024-yilning yanvar–oktabr oylarida POS-terminallar orqali o‘tkazilgan tranzaksiyalar summasi 267125439 mln so‘mni (ya’ni 267,1 trln so‘m) tashkil etgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar YTT va o‘zi band shaxslar uchun ikki muhim natijani anglatadi. Birinchidan, to‘lovni qabul qilish qamrovi kengaydi, ya’ni “faqat naqd” hisob-kitob usulidan chiqish imkoniyati sezilarli darajada osonlashdi, bu ayniqsa xizmat ko‘rsatish, chakana savdo, kuryerlik va maishiy xizmatlar sohalari uchun muhimdir. Ikkinchidan, tranzaksiyalar tezligi oshib, aylanma mablag‘lar aylanishi jadallashdi, kunlik tushumni yig‘ish va qayta xarid qilish sikli qisqardi.

Shuningdek, Markaziy bankning 2024-yil yakuni bo‘yicha yillik hisobotida “QR-online” tizimi orqali tadbirkorlik subyektlariga berilgan QR-kodlar soni qariyb 108 ming donaga yetkazilgani qayd etilgan. Bu YTT va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun bank terminallariga muqobil, nisbatan arzon va tez joriy etiladigan yechimlar kengayayotganini anglatadi.

O‘zi band shaxslar sonining keskin o‘sishi raqamli ro‘yxatdan o‘tish va to‘lov ekotizimi orqali “masshtab” hosil bo‘layotganini ko‘rsatadi. Raqamli to‘lovlarning iqtisodiy samaradorligi ko‘pincha ularning qamrovi bilan o‘lchanadi: rasmiy tizimga qancha ko‘p subyekt jalb etilsa, shuncha ko‘p iqtisodiy operatsiyalar rasmiylashtiriladi. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil 1-oktabr holatida o‘zi band shaxslar soni 4,08 mln nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil 1-iyul holatiga kelib bu ko‘rsatkich 5,5 mln nafardan oshgan. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 56 foizga, ya’ni qariyb 2 mln nafarga oshganini ko‘rsatadi.

Mazkur jarayonni YTT va o‘zi band shaxslar segmentida iqtisodiy faoliyatning raqamlashtirilishi natijasida yuzaga kelayotgan institutsional transformatsiya sifatida izohlash mumkin. Raqamli to‘lov texnologiyalarining, jumladan QR-to‘lovlar, POS-terminallar va mobil ilovalarning keng joriy etilishi iqtisodiy operatsiyalarning avtomatik tarzda raqamli iz qoldirgan holda amalga oshirilishiga olib kelmoqda. Aynan ushbu raqamli izning mavjudligi moliyaviy operatsiyalarni yashirin tarzda olib borish imkoniyatini sezilarli darajada cheklaydi. Natijada YTT va o‘zi band shaxslar faoliyatida naqdsiz tranzaksiyalar ulushi oshib, tushumlar rasmiy moliyaviy aylanmada aks eta boshlaydi.



1-rasm. Raqamli to‘lovlar orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish mexanizmi¹

¹ Muallif ishlanmasi

Shu bilan birga, o‘zi band shaxslar uchun joriy etilgan soddalashtirilgan soliq tartiblari va imtiyozlar raqamli to‘lovlar orqali ishlashni qo‘llab-quvvatlovchi omil bo‘lib xizmat qilsa-da, yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishida asosiy determinant sifatida aynan raqamlashtirish darajasi namoyon bo‘lmoqda. Demak, raqamli to‘lovlar infratuzilmasining kengayishi YTT va o‘zi band segmentida iqtisodiy faoliyatni shaffoflashtirib, rasmiy tushumlarni ko‘paytirish hamda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirishga xizmat qilmoqda (1-rasm).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zi band shaxslar segmentida raqamli to‘lov texnologiyalarini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim institutsional omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli to‘lovlar nafaqat tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va savdo aylanmasini tezlashtirishga xizmat qiladi, balki iqtisodiy operatsiyalarni avtomatik raqamli qayd (digital trace) orqali amalga oshirish hisobiga moliyaviy shaffoflikni sezilarli darajada kuchaytiradi.

Olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, raqamli to‘lov infratuzilmasining kengayishi YTT va o‘zi band shaxslar faoliyatida naqd pulsiz va rasmiy tushumlar ulushining oshishiga olib kelmoqda. Aynan iqtisodiy operatsiyalarning raqamlashtirilishi yashirin tarzda faoliyat yuritish imkoniyatlarini texnologik jihatdan cheklab, yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishiga sabab bo‘lmoqda. Bu jarayonda soliq imtiyozlari va soddalashtirilgan tartiblar qo‘llab-quvvatlovchi omil bo‘lib xizmat qilsa-da, hal qiluvchi rolni raqamlashtirish darajasi bajarishi aniqlangan.

Shuningdek, raqamli to‘lovlardan foydalanish YTT va o‘zi band shaxslarning rasmiy moliyaviy tizimga integratsiyasini tezlashtirib, ularning raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda moliyaviy intizomni mustahkamlaydi. Bu holat moliyaviy inklyuziyaning kengayishiga va moliyaviy mahsulotlardan foydalanish salohiyatining oshishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, raqamli to‘lov texnologiyalarining keng joriy etilishi YTT va o‘zi band shaxslar segmentida iqtisodiy faoliyatni shaffoflashtirish, rasmiy tushumlarni ko‘paytirish, yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish hamda davlat byudjeti tushumlarining barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi samarali mexanizm ekanini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar O‘zbekiston sharoitida raqamli to‘lovlarni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan davlat siyosatining iqtisodiy asoslanganligini ko‘rsatadi va kelgusida mazkur yo‘nalishni yanada chuqurlashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabr PF–246-son “Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7897630>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgust PQ–247-son “Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qulay

shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7681520>

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To‘lov tizimlari va raqamli to‘lov infratuzilmasi bo‘yicha statistik ma’lumotlar. – Toshkent, 2024.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning 2024-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti. – Toshkent, 2025.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar. – Toshkent, 2024–2025.

6. Jahon banki (World Bank). Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. – Washington, DC, 2022.

7. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S., & Hess, J. (2022). The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience. – World Bank Publications. Suri, T., & Jack, W. (2016). The long-run poverty and gender impacts of mobile money. Science, Vol. 354, No. 6317.

8. International Monetary Fund (IMF). Digitalization and the Shadow Economy. IMF Working Paper. – Washington, DC, 2021. – <https://www.imf.org/en/Topics/digital-economy>

9. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). The Role of Digital Payments in the Formalisation of the Economy. – Paris, 2020. – <https://www.oecd.org/digital/>

10. United Nations Development Programme (UNDP). Digital Payments and Financial Inclusion: Accelerating Inclusive Growth. – New York, 2021. – <https://www.undp.org>

11. Asian Development Bank (ADB). Assessment of the State of Financial Inclusion in Uzbekistan. – Manila, 2022. – <https://www.adb.org>

12. Data.egov.uz – O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portali. Raqamli to‘lovlar va tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha ochiq statistik ma’lumotlar. – <https://data.egov.uz>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, yanvar, 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**